

QADIMGI RIM ME`MORCHILIGI: TARIX VA SAN`AT UYG`UNLIGI

Qo`yliyeva Dilshoda Zokirjon qizi

Nizomiy nomidagi O`zbekiston Milliy pedagogika universiteti Tarix fakulteti Tarix yo`nalishi 1 – bosqich talabasi (+998777137242) dilshodaqoyliyeva4@gmail.com

Annotatsiya: Apennin yarimorollaridagi ko`pgina xalqlar, jumladan, etrusklar, keyinchalik Rim o`zi bosib olgan yerlardagi boshqa xalqlar ta`siri ostida rivoj topdi. Uning ravnaqiga, ayniqsa, grek san`ati ta`siri ostida rivoj topdi. Rim san`tida ayniqsa, me`morchilik muhim o`rin egallaydi. Ushbu maqolada Rimda olib borilgan o`zgarishlar, qurilishlar, Rimning “Oltin asri” hisoblangan davrda olib borilgan me`morchilik ishlari, shuningdek, qanday mashhur binolar qurilganligi haqida ma`lumotlar qayd etilgan.

Kalit so`zlar: Qadimgi Rim me`morchiligi, Trayan ustuni, Adrian, Kolizey amfiteatri, Appiy yo`li, haykal portreti, Qadimgi rim arxitekturasini.

Annotation: Many peoples of the Apennine Peninsula, including the Etruscans, later developed under the influence of other peoples in the lands conquered by Rome. Its prosperity was especially influenced by Greek art. Architecture played a particularly important role in Roman art. This article provides information about the changes and constructions carried out in Rome, the architectural works carried out during the period considered the "Golden Age" of Rome, as well as what famous buildings were built.

Keywords: Ancient Roman architecture, Trajan's Column, Hadrian, Colosseum amphitheater, Appian Way, sculptural portrait, Ancient Roman architecture.

Аннотация: Многие народы Апеннинского полуострова, включая этрусков, впоследствии развивались под влиянием других народов на землях, завоеванных Римом. На их процветание особенно повлияло греческое искусство. Архитектура играла особенно важную роль в римском искусстве. В данной статье представлена информация об изменениях и строительных работах, проведенных в Риме, архитектурных произведениях, созданных в период, считающийся «Золотым веком» Рима, а также о знаменитых зданиях, которые были построены.

Ключевые слова: Древнеримская архитектура, колонна Траяна, Адриан, амфитеатр Колизея, Аппиева дорога, скульптурный портрет, древнеримская архитектура.

Qadimgi Rim madaniyatini, san`atini o`rganish uchun, uning tarixini qisqacha ko`rib chiqish lozim. Rim madaniyati uning tarixi bilan chambarchas bog`liq holda shakllangan va rivojlangan. Rim tarixi eramizdan avvalgi VII asrdan boshlanadi. Bir necha tepalikda joylashgan istehkomli qishloqlarning qo`shilishidan Rim payda bo`lgan deyiladi. Rimliklar etrusklardan qurilish texnikasini ba`zi usullarini o`zlashtirib olishgan.

Eramizdan avvalgi 312-yilda Sensor Appiy Klavdiy Tseke davrida rimliklar ilk bor tosh to`shalgan “Appiy” arklarini qurishgan. Odatda rimliklar yo`llarni 5 qatlamli tuzilma bilan qurar edilar. 312-yilda rimlik muhandisi Rimda suv ta`minotini yaxshilash uchun arkli quvur ya`ni akveduk qura boshlagan.

Uning qurilishida g'isht, travertine va marmar ishlatilgan. Rim qurilish san'atining ko'p asrlik tajribasi Mark Vitruviy Pallionning 10 jildlik "Arxitektura to'g'risida" (eramizdan avvali I asrdagi) asarida ma'lumotlar qayd etiladi. Eramizdan avvalgi 55-yilda Mars maydonida toshdan qurilgan birinchi amfiteatr "Pompeya" qurilgan. Dastlab Rimda uylarning qurilishi juda oddiy ko'rinishda bo'lgan.

Uylar xom g'ishtdan qurilib, tomlari poxol bilan yopilgan. Keyinchalik ibodatxonalar, jamoat binolari va boylarning shaxsiy uylari pishiq g'ishtdan solinib, devorlari mahalliy arzon marmar – travertin bilan qoplangan. Keyinchalik oradan vaqt o'tib, tomlari cherapisa bilan yopiladigan bo'lgan. Eramizdan avvalgi III asr o'rtalariga kelib, rimliklar yunonlardan namuna olib hashamatli uylar qura boshlashgan. Qadim zamonlarda Rim ko'chalari ham o'zgacha bo'lgan. Ko'chalarda binolar bir-biriga yopishib turgan, egri-bugri labirintdan iborat bo'lgan. Ko'pchilik ko'chalarga hatto tosh yotqizilmagan.

Rim madaniyati, arxitekturasi va san'atining eng rivojlangan "Oltin davri" eramizdan avvalgi 27 va eramizning 14-yillarida Oktavian Avgust hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Bu davrda nazariyatchi me'mor Vitruviy, tarixchi Tit Liviy va shunga o'xshash olimlar ijod qilishgan. Tarixchilar bu davrning qurilishini ta'riflab, "Avgust Rimni g'ishtdan qurilgan holda olib, uni marmarda qoldirdi".deb yozgandilar. Bu davrda hashamatli binolar, nafis kalonnalar, arkli va gumbazli binolar qurilgan bo'lib, ular shaharni yanada ko'rkam va jozibali ko'rsatgan. Qadimgi Rimning eng katta binolaridan biri "Kolizey" amfiteatrdir. Kolizey (lotincha Colosseum so'zidan olingan) Rimdagi va butun qadimgi dunyodagi eng katta amfiteatrdir. Bu amfiteatr sirk tomoshalari uchun mo'ljallangan edi. Uning qurilishi Flaviya imperatorlari davrida amalga oshirilgan, shuning uchun ham u milodiy 80-yilda qurib bitkazilgan.

Uning ochilish marosimida unga "Flaviya amfiteatri" nomi berilgan. Ushbu voqea sharafiga tomoshalar 100 kun davom etgan. Amfiteatrlarda 40 metrli Gelios haykali (ilgari Neron) haykali o'rnatilgan, bu binoning ulkan o'lchamlari bilan birgalikda barchani ulug'vorligi jihatdan hayratga solgan. Kolizeyning rejasi ellips shaklida bo'lib, uning aylanasi 524 metr, uzunligi 188 metr va asosiy o'qi 154 metrni tashkil etadi. Amfiteatr taxminan 50 ming tomoshabinni o'z ichiga sig'dira oladi. Zinapoyalarning murakkab tizimi esa tez kirish va chiqishni ta'minlaydi.

O'tirish maydoni 4 qavatda joylashgan bo'lib, devorning umumiy balandligi 48,5 metrni tashkil etadi. Ustunli ustun bilan bezatilgan yuqori qavatda soyabonni ko'tarish uchun 240 ta ustun joylashgan edi. Bunday ishlarni faqat dengizchilar bajara olgan. Shu sababli Kolizeyda doimiy ravishda Rim dengizchilarining to'liq ekipaji joylashgan edi. Arena ostida tosh bilan qoplangan yo'laklar, hayvonlar qafaslari va rekvezitlar uchun omborxonalar bor edi. Amfiteatr sirk tomoshalari uchun qurilgan, ammo sport musobaqalari va yovvoyi hayvonlarni o'lja qilishlari uchun ham ishlatishgan. Bir necha asrlar davomida, 406 – yilga qadar Kolizeyda gladiatorlar janglari bo'lib o'tgan.

Rim me'morlarining yana bir muhim yodgorligi "barcha xudolar ibodatxonasi" bo'lgan Panteon hisoblanadi. U 118-125 yillar oralig'ida qurilgan. Unda rim novatorlik uslubi aks etgan. Rim me'morchiligida yangi paydo bo'lgan tiplardan biri – (termalar) ya'ni suv saroylaridir. Iliq va sovuq suvli hovuzlar, gimnastika zallari, oromgohlar va kutubxonalar bo'lgan. 2-3 ming tomoshabinga mo'ljallangan bu binolar bezagiga alohida

e`tabor berilgan. Respublika davriga kelganda Rimning jamoatchilik markazi “Forum” hisoblangan. Bu yerda davlat xazinasi va arxivi (Tabulyarir), notiqlar minbari (Rastra), davlat qamoqxonasi (Tullianium) binolari qurilgan. Ellin davrida Rim-yunon haykallari va boshqa san`at asarlari bilan bezatila boshlangan. Imperiya davrida forum, ibodatxona, bazilika, patrik, zafar arklari, memorial kolonnalar va otliq haykallar bilan bezatilgan. Ularning forumi ajralib turgan. Rim va boshqa shaharlarda termalar-basseyn, gimnastika zallari, park va kutubxonalar bo`lgan, ular qoshida hommomlar ham tashkil etilgan. Bunda eng katta va hashamatli hammomni imperator Karakalla qurgan.

Uning maydoni 12 gektar bo`lgan, unda bir vaqtda 1600 kishi yuvinishi mumkin bo`lgan. Boy rimliklarning hashamatli saroylari marmar kolonnalar, san`at asarlari, mozaika, haykallar bilan bezatilgan va isitgichlarga ega. Kambag`al fuqorolar esa ko`p qavatli, lekin hech qanday qulaylikka ega bo`lmagan, rejasiz qurilgan uyda yashashgan. Yana Rimdagi san`atning eng katta yutuqlaridan biri haykal portreti edi. Yunon haykallari barkamol fuqoro obrazini yaratgan bo`lsa, Rim haykali odaming ayan o`sha ko`rinishida bunyod qilingan.

Anatoniylar sulolasining yorqin vakillaridan biri Trayan hukmronligi davrida Rim davlati gullab yashnadi. U faol tashqi siyosat olib bordi, imperiya chegaralarini kengaytirdi. Dakiya podsholigini bo`ysundirdi va bu g`alaba sharafiga Rimda 123 kun tomosha ko`rsatildi. Plebslarga mo`l-ko`l o`lja ulashildi, ajoyib Trayan termalari (hommomlari), yangi suv quvurlari va Trayan kolonnasi bunyod etildi. Uning davrida yana yangi suv quvurlari va 30 metrli Trayan kolonnasi bunyod etilgan.

Trayan vafotidan so`ng hokimiyatga, uning jiyani Publiy Eliy Adrian chiqadi. Adrian amalga oshirgan eng muhim ishlardan biri, bu Yevropa bilan Afrika yutug`i bo`lib, imperiya chegaralarini mustahkamlash maqsadida chegara istehkomlarini qurganligi edi. Ana shunday istehkomlardan biri “Adrian vali” (istehkomi) Britaniyada hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

Rimda haykaltaroshlik sohasi ham juda rivojlangan. Bu sohaning so`nggi respublika asarlaridan “Orator”, “Togatus”, “Brut” haykallari, Mariy, Pompey, Sitseron, Kichik Katon va Sezarni buryustlarini ko`rsatish mumkin. Bundan tashqari ko`pgina imperator va malikalarni, amaldor, sarkarda, shoir va faylasuflarni marmar byustlarni saqlanib qolgan.

Xulosa qilib aytganda Qadimgi Rim me`morchiligi nafaqat o`z davrining buyuk yutug`i, shu bilan birga bu keying davrlarda ham ko`plab davlatlarning me`morchiligiga ijobiy ta`sir ko`rsatgan. Rimda hukmronlik qilgan podsholar qilgan podsholar, urushlar, jangu-jadallar olib borishdan faqat mamlakat hududini kengaytirishda emas, balki o`sha huddudagi binolarga ham e`tibor berishgan. Ularning qurilish uslubini ham chetda qoldirmagan. Shu sababli ularning inshootlarida san`at va qurilish bir-biri bilan uyg`unlashgan. Rimda qurilgan inshootlardan bugungi kunga qadar saqlanib qolgan va bu inshootlar bugungi kun insonlarini ham hayratga solmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

I.D.J.Urakov, R.N.tursunov, A.A.Biykuziyev, B.B.Xaynazarov “Jahon tarixi” o`quv qo`llanma. Toshkent; Jahon tarixi o`quv qo`llanma, “Innovatsiya Ziya”-2020.



2.R.R.rajabov, “Qadimgi dunyo tarixi” (SHarq, Yunoniston,Rim), Toshkent – “Fan va texnologiya” – 2009.

3.Turapov.Y “Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati”, Uslubiy qo`llanma. Toshkent – “Navro`z”- 2013; (56 – bet).